



## “MATBUOT XIZMATI VA AXBOROT MADANIYATI O‘RTASIDAGI UZVIY BOG‘LIQLIK: OLIY TA‘LIM AMALIYOTI VA ISTIQBOLLARI”

Djumabayev Irgashbek Alisherovich

Andijon davlat universiteti

Axborot siyosati va masalalari bo‘yicha rektor maslahatchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15623711>

**Annotatsiya:** Maqolada oliy ta‘lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan matbuot xizmatlarining talabalarda axborot madaniyatini shakllantirishdagi roli va ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Axborot jamiyatida yosh avlodning axborotga nisbatan ongli, tanqidiy va mas‘uliyatli yondashuvini qaror toptirishda matbuot xizmatining tarbiyaviy, kommunikativ va informatsion strategiyalari muhim o‘rin egallaydi. Maqolada shuningdek, matbuot xizmatlarining axborot siyosatini olib borishdagi zamonaviy usullari, OTM brendini shakllantirishdagi omillari, shaffoflik va ochiqlik tamoyillariga asoslangan ishlari ham ko‘rib chiqiladi. Talabalarda media savodxonlik, ijtimoiy tarmoqlarda xulq madaniyati, tanqidiy fikrlash va axborot manbalarini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda matbuot xizmatining istiqbolli vazifalari tahlil qilinadi.

**Kalitso‘zlar:** matbuot xizmati, axborot madaniyati, oliy ta‘lim, talabalar, kommunikatsiya, media savodxonlik, axborot siyosati, raqamli madaniyat, universitet brendi, axborot xavfsizligi.

**Аннотация:** В статье подробно рассматривается взаимосвязь между деятельностью пресс-служб высших учебных заведений и формированием информационной культуры студентов. В условиях цифровизации общества возрастает необходимость в том, чтобы молодое поколение осознанно, критично и ответственно относилось к информации. Автор акцентирует внимание на коммуникативной и воспитательной миссии пресс-служб, их роли в продвижении бренда университета, обеспечении открытости и прозрачности деятельности вуза. Особое внимание уделяется таким аспектам, как развитие медиаграмотности, формирование навыков критического мышления у студентов, ориентировка в информационном пространстве, а также перспективные направления работы пресс-служб в цифровую эпоху.

### Ключевые

пресс-служба, информационная культура, высшее образование, студенты, коммуникация, медиаграмотность, информационная политика, цифровая культура, репутация университета, информационная безопасность.

### слова:

**Abstract:** This article explores the intrinsic connection between the functioning of university press services and the development of students' information culture. In the context of a rapidly digitalizing society, fostering critical, conscious, and responsible approaches to information among youth becomes a strategic priority. The paper analyzes the educational, communicative, and strategic roles of press services in higher education institutions, including their contribution to institutional branding, transparency, and effective public communication. It also addresses key areas such as the promotion of media literacy, development of students' critical thinking and analytical skills, and navigation of digital

information spaces. Furthermore, it outlines prospective directions for press services in fostering a secure, ethical, and information-literate academic environment.

**Keywords:** press service, information culture, higher education, students, communication, media literacy, information policy, digital culture, university branding, information security

Globalashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari insoniyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan, ta'lim sohasiga ham keskin ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi, ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi, ochiq axborot maydonining shakllanishi yosh avlodning dunyoqarashi, tafakkur madaniyati va axborotga munosabatini tubdan o'zgartirmoqda. Bunday sharoitda yoshlarda axborotga nisbatan mas'uliyatli, tanqidiy va ongli yondashuvni shakllantirish — zamonaviy ta'limning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan matbuot xizmatlarining roli tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda matbuot xizmatlari nafaqat universitet faoliyatining yoritilishi, balki axborot siyosatini shakllantirish, brend imijini yaratish, talabalar bilan kommunikatsiyani yo'lga qo'yish, ochiqlik va shaffoflik prinsiplarini ta'minlash kabi muhim strategik vazifalarni bajaradi. Ayniqsa, axborot madaniyati — ya'ni axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, undan samarali foydalanish va axborot xavfsizligini ta'minlash madaniyati talabalar orasida shakllanishida matbuot xizmatining beqiyos ta'siri mavjud.

Afsuski, aksar holatlarda OTM matbuot xizmatlari faqat rasmiy xabarlarini tarqatish, bayramlarga oid e'lonlar berish bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa ular zimmasidagi tarbiyaviy va informatsion-ma'rifiy salohiyatdan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatadi. Vaholanki, to'g'ri yo'naltirilgan matbuot xizmati faoliyati orqali talabalar axborot oqimiga ongli tarzda yondashishni o'rganishi, soxta va ishonchli manbalarni ajrata bilishi, media savodxonlik va axborot xavfsizligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini boyitishi mumkin.

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida matbuot xizmatining axborot madaniyatini shakllantirishdagi o'rni har tomonlama tahlil qilinadi. Matbuot xizmatlari faoliyatining amaliy holati, ularning kommunikativ va tarbiyaviy vazifalari, shuningdek, talabalarda media savodxonlikni rivojlantirishdagi istiqbolli yo'nalishlar ilmiy-nazariy va amaliy asosda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar bilan qiyosiy tahlillar orqali O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari matbuot xizmatlari faoliyatini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**ASOSIY QISM.** Oliy ta'lim muassasalari faoliyatida matbuot xizmatlari tobora muhim o'rin egallab bormoqda. Ilgarigi yillarda bu bo'limlar asosan rasmiy bayonotlar, farmoyishlar yoki tadbirlar haqida xabar berish bilan cheklangan bo'lsa, hozirgi kunda ular universitetning ichki va tashqi kommunikatsion siyosatini shakllantiruvchi muhim tuzilmaga aylanmoqda. Matbuot xizmatlari nafaqat universitet hayotini yoritish, balki ta'lim muassasasining ijtimoiy brendini yaratish, jamoatchilik bilan aloqalarni mustahkamlash, ochiqlik va shaffoflik prinsiplarini amaliyotga joriy etish, eng asosiysi — talabalar axborot madaniyatini shakllantirishda faol ishtirok etuvchi vositaga aylanishi kerak.

Bugungi raqamli asrda talabalar doimiy ravishda turli axborot oqimlariga duch kelishmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali olinadigan ma'lumotlar ko'plab afzalliklar bilan birga xavf-xatarlarni ham o'zida mujassam etadi. Soxta xabarlar, manipulyativ kontent, yolg'on ijtimoiy kampaniyalar yoshlarning dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.



Shu sababli ularni axborotni tanqidiy baholashga, ishonchli manbalarni ajrata olishga, shuningdek, shaxsiy axborot xavfsizligini saqlashga o'rgatish — zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Aynan matbuot xizmatlari ushbu jarayonda vositachi, ko'rsatma beruvchi va o'rgatuvchi sifatida maydonga chiqishi lozim.

Universitet matbuot xizmatlari orqali talabalar ishtirokida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan mavzularda blogpostlar, reportajlar, podkastlar va ta'sirchan intervyular tayyorlanmoqda. Bu esa nafaqat ijodiy salohiyatni ochishga xizmat qiladi, balki ularni amaliy axborot tahliliga jalb qilish orqali media savodxonligini oshiradi. Matbuot xizmatlari faqat rasmiy axborotlar bilan emas, balki tanqidiy tahlilga asoslangan kontentlar, muhokama qilinadigan maqolalar, ijtimoiy tarmoqlarda interaktiv muloqotlar orqali ham faoliyat olib borishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, axborot madaniyatini rivojlantirishda matbuot xizmatining kommunikativ uslubi katta ahamiyatga ega. Bu xizmatlar talabalarga yaqin, ularning tili va dunyoqarashiga mos uslubda axborot berishni yo'lga qo'lishi kerak. Rasmiy va quruq axborot matnlari o'rniga jonli, ta'sirli, vizual jihatdan boyitilgan materiallar talabaning e'tiborini jalb etadi, uni fikr bildirishga undaydi va muloqotga tortadi. Bu esa o'z navbatida talabada axborotga faollik bilan yondashish, uning mohiyatini tushunishga intilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Biroq amaliyotda bu boradagi faoliyat hali to'liq tizimlashtirilmagan. Ko'plab oliy ta'lim muassasalarining matbuot xizmatlari ijtimoiy tarmoqlarda cheklangan auditoriyaga ega, kontent sifati esa professional talablarga javob bermaydi. Shuningdek, bu xizmatlarning kommunikatsiya strategiyasi, PR yondashuvi yoki media rejasi mavjud emasligi kuzatiladi. Bu esa nafaqat universitet obro'siga, balki talabalar ongidagi axborot madaniyatining shakllanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayni paytda talaba-yoshlarni axborot madaniyatiga o'rgatish, ularni media maydonning faol ishtirokchisiga aylantirish — bu vaqt talabiga aylangan muhim vazifadir. Universitet matbuot xizmatlari bu borada faqat ijrochilik funksiyasini emas, balki tarbiyaviy, ma'rifiy va strategik yo'naltiruvchi rolini bajarishi lozim. Shuningdek, axborot madaniyatini shakllantirishda boshqa tuzilmalar — pedagoglar, psixologlar, axborot texnologiyalari mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlash natijadorlikni yanada oshiradi.

Shu ma'noda, matbuot xizmati va axborot madaniyati o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni chuqur anglash, bu faoliyatni faqat texnik axborot tarqatish bilan emas, balki shaxs tarbiyasiga xizmat qiluvchi ma'naviy-ma'rifiy jarayon sifatida ko'rish zarur. Faqat shundagina universitetlar axborot makonida kuchli, ishonchli va mas'uliyatli ishtirokchini — axborot madaniyatiga ega talaba shaxsini shakllantira oladi.

**METODOLOGIYA.** Mazkur tadqiqotning metodologik asosi sifatida zamonaviy kommunikatsiya nazariyalari, axborot jamiyati konsepsiyasi, axborot madaniyatining pedagogik va ijtimoiy-psixologik asoslari, shuningdek oliy ta'lim tizimidagi axborot siyosati bilan bog'liq yondashuvlar tanlab olindi. Tadqiqotda matbuot xizmatining amaliy faoliyati va talabalarda axborot madaniyatini shakllantirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik empirik va nazariy jihatdan o'rganildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan asosiy ilmiy yondashuvlar quyidagilardan iborat:

✚ **Sistemali yondashuv:** Oliy ta'lim muassasalaridagi matbuot xizmati faoliyati kommunikatsiya tizimining tarkibiy qismi sifatida tahlil qilindi. Bu yondashuv orqali axborot uzatish, qabul qilish va qayta ishlash jarayonlarining bosqichlari o'rganildi.



✚ **Komparativ tahlil yondashuvi:** Turli oliy ta'lim muassasalarining matbuot xizmatlari faoliyati o'zaro taqqoslandi, ularning axborot madaniyatini shakllantirishdagi tajribalari o'rganildi.

✚ **Tajriba-tahliliy yondashuv:** Matbuot xizmatlari tomonidan talabalar uchun tayyorlangan kontentlar, axborot xabarlarining sifati, ijtimoiy tarmoqlardagi faollik darajasi, talabalarining ishtiroki va media savodxonlik darajasi empirik kuzatish asosida baholandi.

✚ **Pedagogik yondashuv:** Axborot madaniyatini shakllantirish pedagogik jarayon sifatida talqin qilinib, bunda matbuot xizmati faoliyatining tarbiyaviy va ma'rifiy jihatlari chuqur tahlil qilindi.

Tadqiqot doirasida shuningdek, oliy ta'lim muassasalari matbuot xizmatlarining rasmiy internet sahifalari, ijtimoiy tarmoq platformalaridagi kontentlari (Telegram, Instagram, YouTube) kuzatildi, shuningdek, ayrim universitetlar PR mutaxassislari va talabalar bilan norasmiy suhbatlar orqali sifat tahlillari olib borildi.

Metodologiya tanlashda xalqaro tajribalardan ham foydalanildi, xususan UNESCO, UNESCO IITE, hamda AQSh va Yevropa universitetlarining media-savodxonlik bo'yicha dasturlari o'rganilib, mahalliy sharoitga moslashtirildi.

Tadqiqot metodologiyasi umumiy holatda aniq va xolis baholash, real misollar asosida tahlil qilish, nazariy qarashlarni amaliy faktlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qildi. Bu esa mavzuning nazariy asoslarini amaliy misollar bilan boyitishga imkon berdi va maqolaning ilmiy asoslanganligini ta'minladi.

**XULOSA.** Raqamli jamiyatda yashayotgan har bir fuqaro, ayniqsa, yosh avlod vakillari axborotga nisbatan ongli, mas'uliyatli va tanqidiy yondasha olishi zarur. Bunday kompetensiyalarni shakllantirish axborot madaniyatining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalari esa nafaqat bilim beruvchi, balki axborotga munosabatni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida ushbu jarayonda yetakchi rol o'ynaydi. Mazkur maqolada olib borilgan nazariy tahlillar va amaliy kuzatishlar asosida aniqlanishicha, universitet va institutlar qoshidagi matbuot xizmatlari axborot madaniyatini rivojlantirishda salohiyatli vosita bo'lishi mumkin.

Matbuot xizmatlari an'anaviy axborot tarqatish faoliyatidan chiqib, kengroq — raqamli kommunikatsiya markazi sifatida shakllanishi zarur. Ular talabalarda media savodxonlikni oshirish, raqamli xavfsizlik va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot oqimlarini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Buning uchun matbuot xizmatlari o'z kommunikatsiya strategiyasini ishlab chiqishi, interaktiv va ta'sirchan axborot vositalarini qo'llashi, talabalarni faol ishtirok etishga jalb qiluvchi loyihalar — bloglar, podkastlar, video roliklar, ijtimoiy sotsiologik so'rovlar kabi shakllarni amaliyotga tatbiq etishi lozim.

Maqolada aniqlanganidek, aksar oliy ta'lim muassasalari matbuot xizmatlarining faoliyati hali ham biryoqlama va passiv tarzda olib borilmoqda. Bu esa talabalar bilan kommunikatsiyaning zaiflashishiga, ularning axborotga bo'lgan munosabatida befarqlik yoki yuzaki yondashuv paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Ushbu holatni bartaraf etish uchun matbuot xizmatlari faoliyatini tizimli ravishda qayta ko'rib chiqish, uni strategik axborot siyosati darajasiga ko'tarish va ilg'or xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan, axborot madaniyatini rivojlantirish jarayonida universitet matbuot xizmatlarining faol ishtirokini ta'minlash, bu xizmatlarning texnik va metodik bazasini kuchaytirish, kadrlarni maxsus tayyorlash va doimiy malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yish



dolzarb vazifalardan biridir. Talabalarda media va axborot savodxonligini shakllantirish orqali nafaqat ularning shaxsiy intellektual darajasi, balki jamiyatda sog'lom axborot muhitini yaratish yo'lida ham muhim natijalarga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, axborot madaniyati va matbuot xizmati o'rtasidagi bog'liqlikni to'g'ri anglash va uni amaliyotga to'laqonli joriy etish orqali oliy ta'lim muassasalari zamonaviy, ochiq va mas'uliyatli axborot muhitini yaratishga erishadi. Bu esa, o'z navbatida, raqamli asrda fikrlovchi, savodxon va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot sohasini yanada rivojlantirish va ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. — 2021 yil 26 iyun, PQ-5154-son.
- 3.Nishonova S.S. Oliy ta'limda axborot madaniyati asoslarini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari. – Toshkent: TDPU, 2019.
- 4.Axmedova Z.M. Axborot madaniyati: nazariya, metodika va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
- 5.Nuritdinov A. Matbuot xizmati faoliyatining psixologik-pedagogik asoslari. – Toshkent: Ijtimoiy fikr, 2021.
- 6.Qodirov D.Q. Oliy ta'lim muassasalarida raqamli kommunikatsiya vositalaridan foydalanish samaradorligi. // "Pedagogik ta'lim" ilmiy-amaliy jurnali, 2023, №2.
- 7.UNESCO. Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines. – Paris: UNESCO, 2013.
- 8.Potter W.J. Media Literacy. – London: SAGE Publications, 2018.
- 9.Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 2010.
- 10.Khamidov M.M., Jo'rayev A.A. Talabalarda media savodxonlikni shakllantirishda internet-resurslardan foydalanish metodikasi. – Andijon: Innovatsiya nashriyoti, 2022.
- 11.O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan OTM matbuot xizmati faoliyati bo'yicha metodik qo'llanma. — Toshkent, 2023.
- 12.O'zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA), "Oliy ta'limda ochiqlik va shaffoflik: matbuot xizmatlari zimmasidagi mas'uliyat" // www.uza.uz, 2023.

